*Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining*
*2023-yil "07"-iyuldagi 10-son yig'ilish bayoniga*
***ilova***

# Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining 2023-yil 2-yarim yillikka mo'ljallangan ISh REJASI

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>O'rganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas'ullar:<br>Boshqarma, bo'limlar |
|---|---|---|---|
| **Ia. 2023-yil II yarim yillikda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari** | | | |
| 1. | Yuqori sinf o'quvchilari qobiliyati va tanlovi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bo'yicha tajriba-sinovidan o'tkaziladigan umumta'lim maktablariga ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni biriktirish va ularga metodik yordam ko'rsatish choralarini ko'rish. | 2023-yil iyul | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi |
| 2. | Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 592-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatlarini olish test sinovlarida Agentlik xodimlari ishtirokini ta'minash. | Yil davomida | Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi |
| 3. | 2023/2024-o'quv yili uchun ijod maktablariga ijodiy (ijodiy matn yaratish va ijodiy suhbat) imtihonlarini tashkil etish va o'tkazish. | 2023-yil iyul | Ijod maktablari bilan ishlash bo'limi |
| 4. | Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga 2023/2024-o'quv yili uchun kirish imtihonlarini tashkil etish va o'tkazish. | 2023-yil iyul -avgust | Maktablarga o'quvchilar qabulini tashkil etish va ular bilan ishlash bo'limi Agentlikning tegishli bo'linmalari bilan birgalikda |
| 5. | O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan ijod maktablarida o'tkaziladigan "Mahorat darslari" ning o'tkazilishini muvofiqlashtirib borish. | 2023-yil sentabr-dekabr | Ijod maktablari bilan ishlash bo'limi |
| 6. | Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar o'quvchilarining ta'til vaqtlarida onlayn olimpiadalarni tashkil etish. | 2023-yil noyabr | Maktablarga o'quvchilar qabulini tashkil etish va ular bilan ishlash bo'limi |

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>O‘rganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas’ullar:<br>Boshqarma, bo‘limlar |
|---|---|---|---|
| 7. | Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, maktab-internatlarda hamda ijod maktablarida o‘quv jarayonlari uchun zarur laboratoriya asbob-uskunalari, reagentlar, kompyuter texnikasi, interaktiv doska va robototexnika jihozlarini markazlashgan holda Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan harid qilish ishlarini O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun talablariga muvofiq tashkil qilish, g‘olib tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan ta’lim muassasalarini mazkur jihozlar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish. | 2023-yil dekabr | Moddiy-texnir ta’minot bo‘limi |
| 8. | 2024-yil uchun **edo.ijro.uz** tizimi, Toshkent Pochtampt hamda Davlat feldegerlik xizmatidan foydalanish uchun shartnomalarni tuzish. | 2023-yil dekabr | Tashkiliy nazorat va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi |
| | **Ib. 2023-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha takliflari** | | |
| 9. | “Yangi O‘zbekiston” universitetining ilmiy maktablari faoliyatini ommalashtirish va qo‘lga kiritilgan yutuqlar bo‘yicha “International Conference on Information, System and Convergence Applications” (ICISCA 2023) xalqaro konferensiya tashkil qilish. | 2023-yil iyul | Oliy ta‘lim muassasalari va bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo‘limi |
| 10. | Agentlik tizimidagi ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar uchun qoraqalpoq tili va adabiyoti dasturini ishlab chiqish ishlarini tashkil etish. | 2023-yil iyul | O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklarni ishlab chiqish bo‘limi |
| 11. | Prezident maktablarining ta’lim jarayonini Xalqaro CIS (Council of International Schools) tashkiloti talablariga muvofiqlashtirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil etish. | 2023-yil iyul-avgust | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Pedagogik mahorat va xalqaro baoholash ilmiy-amaliy markazi |
| 12. | Agentlikda axborot xavfsizlik siyosatini qayta ko‘rib chiqish va tegishli davlat idoralari bilan kelishish. | 2023-yil iyul-avgust | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo’limi |
| 13. | Prezident maktablarining mahaliy va xorijiy mutaxassislari ishtirokida Cambridge Assessment xalqaro ta’lim tashkiloti dasturi bo‘yicha trening tashkil etish. | 2023-yil avgust | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi |
| 14. | Agentlikning huquqni qo‘llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta’minlashni tashkil etish. | 2023-yil iyul-dekabr | Yuridik bo‘lim |
| 15. | Shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da’vo ishlarini yuritish, Agentlikning mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta’minlash | 2023-yil iyul-dekabr | Yuridik bo‘lim |
| 16. | Jizzax shahar 2-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati huzuridagi “Lochin” oromgohining faoliyatini yo‘lga qo‘yish yuzasidan asoslangan takliflar ishlab chiqish hamda rahbariyatga kiritish. | 2023-yil avgust | Oliy ta‘lim muassasalari va bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo‘limi |

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>Oʻrganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas'ullar:<br>Boshqarma, boʻlimlar |
|---|---|---|---|
| 17. | "Yangi Oʻzbekiston" universitetiga 2023/2024-oʻquv yili uchun talabalarni qabul qilish boʻyicha kirish imtihonlarini tashkil etish va oʻtkazish. | 2023-yil avgust | Oliy ta'lim muassasalari va bolalar sogʻlomlashtirish oromgohi bilan ishlash boʻlimi |
| 18. | Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari uchun CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS nashriyotining 7-sinflar uchun fizika va 8-sinflar biologiya fanlaridan mahalliylashtirilgan darslik majmualarini chop etishni tashkil etish. | 2023-yil avgust | Oʻquv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklarni ishlab chiqish boʻlimi |
| 19. | Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari uchun ishlab chiqilgan 5-sinflar uchun informatika va matematika, ijod maktablarining 10-sinflari uchun adabiyot, 7-sinflari uchun ona tili darsliklarini chop etishni tashkil etish. | 2023-yil avgust | Oʻquv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklarni ishlab chiqish boʻlimi |
| 20. | 2023/2024-oʻquv yili qabuli uchun oʻquvchilarning (onlayn) arizalarni **ariza.piima.uz** portali orqali qabul qilishda kuzatilgan kamchilik, muammo va takliflar roʻyxatini shakllantirish va kelgusi yilda foydalanish uchun dasturiy ta'minotga kerakli oʻzgarish va qoʻshimchalarni kiritish. | 2023-yil avgust-sentabr | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boʻlimi |
| 21. | "Yangi Oʻzbekiston: Inson qadri ustuvor boʻlgan jamiyat va xalqparvar davlat" gʻoyasini oʻquvchi-yoshlar ongiga singdirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida turkum uchrashuvlar oʻtkazish. | 2023/2024-oʻquv yili davomida | Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash boʻlimi |
| 22. | Ijod maktablari oʻquvchilarining ijodiy ishlari jamlangan "Ijod bogʻidan guldasta" toʻplamining 4-soni nashr tayyorlash. | 2023-yil sentabr-oktabr | Ijod maktablari bilan ishlash boʻlimi |
| 23. | 1-oktabr – "Ustoz va murabbiylar kuni" munosabati bilan "Sizga ta'zim ustozlar!" mazvularida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar tashkil etish. | 2023-yil sentabr-oktabr | Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash boʻlimi |
| 24. | Agentlik tizimidagi ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar uchun qoraqalpoq tili va adabiyoti darsliklarini ishlab chiqish va chop etish ishlarini tashkil etish. | 2023-yil sentabr | Oʻquv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklarni ishlab chiqish boʻlimi |
| 25. | Samarqand, Qashqadaryo, Andijon viloyatlarida kamida bittadan, bosqichma-bosqich boshqa hududlardagi ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda ikkinchi xorijiy tilni oʻqitishni yoʻlga qoʻyish. | 2023-yil sentabr-dekabr | Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab internatlar bilan ishlash boʻlimi |
| 26. | Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlar markazlaridagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlariga xorijiy oʻqituvchilarni jalb qilish chorasini koʻrish. | 2023-2024-oʻquv yili davomida | Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab internatlar bilan ishlash boʻlimi |

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>O‘rganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas’ullar:<br>Boshqarma, bo‘limlar |
|---|---|---|---|
| **II. 2023-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralari natijadorligi tahlili** | | | |
| 27. | Prezident, ijod hamda ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida chorak yakuni bo‘yicha summativ baholash sinovlarini markazlashtirilgan holda o‘tkazish. | 2023-yil oktyabr, dekabr | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi |
| 28. | Prezident, ijod hamda ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida chorak yakuni bo‘yicha summativ baholash sinovlarini natijalarini tahlil qilish va aniqlangan bo‘shliqlar bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish. | 2023-yil noyabr, dekabr | Baholash va monitoring qilish bo‘limi,<br>Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi |
| 29. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” universitetini tashkil etish to‘g‘risida” 2021-yil 23-iyundagi PQ–5158-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan rahbariyatga tanqidiy-tahliliy ma’lumot kiritish. | 2023-yil dekabr | Oliy ta‘lim muassasalari va bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo‘limi |
| 30. | Prezident maktablarini SAT (Scholastic Aptitude Test) akademik baholash test markaziga aylantirish choralarini ko‘rish. | 2023-yil dekabr | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi |
| 31. | Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari hamda ijod maktablarining 2023-yildagi faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha reyting ma’lumotlarini tayyorlash. | 2023-yil dekabr | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi |
| 32. | Vazirlar Mahkamasining “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi bolalar oromgohi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 9-fevraldagi 65-son qarori bilan belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan rahbariyatga tanqidiy-tahliliy ma’lumot kiritish. | 2023-yil dekabr | Oliy ta‘lim muassasalari va bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo‘limi |
| **III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosini maqsadli o‘rganish** | | | |
| 33. | Qabul qilingan o‘quvchilar va sinflar sonidan kelib chiqib, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagog kadrlar tarkibini tahlil qilish, ehtiyojlarni aniqlash va ularni qoplash choralarini ko‘rish. | 2023-yil avgust | Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab internatlar bilan ishlash bo‘limi,<br>Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi |
| 34. | Yangi tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga liderlik qobiliyatlar ega, vazifa va funksiyalarni bajarishga layoqatli, boshqaruv salohiyati yuqori bo‘lgan rahbar kadrlarni bilan ta’minlash. | 2023-yil avgust | Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi,<br>Ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar bilan ishlash bo‘limi |

| T/r | **Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi** | **Ijro muddati** | **Mas'ullar: Boshqarma, bo'limlar** |
|---|---|---|---|
| 35. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-oktabrdagi PQ-386-son qaroriga muvofiq Namangan to'qimachilik sanoati instituti ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodlarini joriy etish hamda xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish. | 2023-yil avgust | Oliy ta'lim muassasalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo'limi |
| 36. | Namangan to'qimachilik sanoati instituti o'quv-metodik hujjatlarini hamkor xorijiy oliy ta'lim tashkiloti takliflari va xalqaro reyting tashkilotlarining birinchi 1 000 talik ro'yxatiga kirgan universitetlarning ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqish bo'yicha takliflar tayyorlash hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish. | 2023-yil avgust | Oliy ta'lim muassasalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo'limi |
| 37. | Namangan to'qimachilik sanoati instituti talabalarining fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichini va professor-o'qituvchilarning ish samarasini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish.. | 2023-yil sentabr | Oliy ta'lim muassasalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo'limi |
| 38. | Namangan to'qimachilik sanoati instituti talabalarining tanishuv va malakaviy amaliyotini xorijiy va mahalliy yirik to'qimachilik korxonalarida o'tash tizimini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish. | 2023-yil sentabr | Oliy ta'lim muassasalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo'limi |
| 39. | Namangan to'qimachilik sanoati instituti professor-o'qituvchilari, doktorantlari va magistrantlarini xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim tashkilotlariga ilmiy stajirovka va malaka oshirishga yuborish choralarini ko'rish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish. | 2023-yil sentabr | Oliy ta'lim muassasalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo'limi |
| 40. | "Yangi O'zbekiston" universitetining ilmiy unvon va xalqaro sertifikatlarga ega pedagoglar sonini oshirish. | 2023-yil sentabr | Oliy ta'lim muassasalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo'limi |
| 41. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-chadbirlar to'g'risida" PF–5843-son Farmonining 10-bandiga muvofiq, Agentlik xodimlarining qisqa muddatli (30-60 soat) malaka oshirish kurslaridan o'tishini ta'minlash. | 2023-yil oktabr, dekabr | Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi |
| 42. | "Yangi O'zbekiston" universitet professor-o'qituvchilarining ilmiy maktablarini yo'lga qo'yish hamda mahalliy va xorijiy ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni kuchaytirish. | 2023-yil dekabr | Oliy ta'lim muassasalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo'limi |
| 43. | Mirzo Ulug'bek va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim jarayonini Xalqaro bakalavriat (International Baccalaureate-IB) tashkiloti talablariga muvofiqlashtirish hamda akkreditasiyadan o'tkazish jarayoniga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish. | 2023-yil dekabr | Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi |

| T/r | Ustuvor vazifalar.<br>O‘rganiladigan masalalar mavzusi | Ijro muddati | Mas’ullar:<br>Boshqarma, bo‘limlar |
|---|---|---|---|
| 44. | “Yangi O‘zbekiston” universiteti talabalarning xalqaro ilmiy konferensiyalarda ishtirokini tashkil etish. | 2023-yil dekabr | Oliy ta‘lim muassasalari va bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo‘limi |
| 45. | Yetakchi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va xodimlarini “Yangi O‘zbekiston” universiteti ilmiy-tadqiqot ishlariga faol jalb etish. | 2023-yil dekabr | Oliy ta‘lim muassasalari va bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo‘limi |
| 46. | “Yangi O‘zbekiston” universitetining ilmiy salohiyatini oshirish uchun mutaxassislik yo‘nalishlaridan kelib chiqib, falsafa fanlari doktori (PhD) hamda fan doktorlarining (DSc) yetakchi oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish. | 2023-yil dekabr | Oliy ta‘lim muassasalari va bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo‘limi |
| 47. | Ijod maktablariga biriktirilgan O‘zbekiston xalq shoirlari, Xalq yozuvchilari va boshqa yuksak unvonlarga sazovor bo‘lgan ustoz adiblarni faoliyatini samaradorligini monitoringini olib borish. | 2023-yil dekabr | Ijod maktablari bilan ishlash bo‘limi |
| 48. | “Yangi O‘zbekiston” universiteti professor-o‘qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda o‘tkaziladigan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda tizimli ravishda ishtirokini ta‘minlash. | 2023-yil dekabr | Oliy ta‘lim muassasalari va bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi bilan ishlash bo‘limi |
| **Agentlik tizimidagi ta’lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash** | | | |
| 49. | Budjet so‘roviga muvofiq Agentlikning 2024-2026-yillar uchun istiqbolli xarajatlar smetasi loyihasini shakllantirish hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish. | 2023-yil iyul-avgust | Moliya-iqtisod boshqarmasi, Jamg‘arma mablag‘larini boshqarish va moliya bo‘limi |
| 50. | Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining 2024-yil uchun daromadlar va xarajatlar smetasini ishlab chiqish va rahbariyatga kelishish uchun kiritish | 2023-yil dekabr | Moliya-iqtisod boshqarmasi |